



ISSUES OF THE ETHNIC FACTOR IN THE INTEGRATION OF THE CENTRAL ASIAN REGION

Ravshan Khomitov

Associate Professor, National University
of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
PhD in Philosophy
xamitovravshan7@gmail.com
Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, ethnic factor, integration, national issue, demography, inter-ethnic relations.

Received: 22.02.26

Accepted: 23.02.26

Published: 24.02.26

Abstract: This article describes the role of the ethnic factor in the relations between the countries of the Central Asian region. Also, in the formation of the national composition, the coexistence of sister peoples in the five republics of the region, their number, location and social relations, as well as their role in "people's diplomacy" were shown.

MARKAZIY OSIYO MINTAQASI INTEGRATSIYASIDA ETNIK OMIL MASALALARI

Ravshan Xomitov

t.f.f.d. PhD
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston
Milliy universiteti dotsenti
xamitovravshan7@gmail.com
Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: Markaziy Osiyo, etnik omil, integratsiya, milliy masala, demografiya, millatlararo munosabatlar.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasi davlatlarining o'zaro munosabatlarida etnik omilning tutgan o'rni bayon qilingan. Shuningdek, milliy tarkibning shakllanishida mintaqadagi beshta respublikalarda qardosh halqlarning o'zaro yashashi, ularning miqdori, joylashuvi hamda ijtimoiy munosabatlari hamda "xalq diplomatiya"sidagi o'rni ko'rsatib o'tilgan.

ВОПРОСЫ ЭТНИЧЕСКОГО ФАКТОРА В ИНТЕГРАЦИИ РЕГИОНА ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Равшан Хомитов

Кандидат философских наук, PhD

Доцент Национального университета

Узбекистана имени Мирзо Улугбека

xamitovravshan7@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Центральная Азия, этнический фактор, интеграция, национальная проблема, демография, межэтнические отношения.

Аннотация: В данной статье описывается роль этнического фактора в отношениях между странами Центральноазиатского региона. Также в процессе формирования национального состава были показаны сосуществование братских народов в пяти республиках региона, их численность, географическое положение и социальные связи, а также их роль в «народной дипломатии».

Kirish. Dunyo hamjamiyati o'tmishning barcha davrlarida bo'lgani kabi o'zaro hamkorlik va munosabatlarni o'rnatish hamda mustahkamlashga intilib kelgan. Faqat davr va yangicha qarashlar bu sohada takomillashuvni, shaklan boyib mazmunan yangilanish orqali o'zaro qulaylik va ishonchni vujudga keltirishni talab qilgan. Shu nuqtai nazardan qaralganda, Markaziy Osiyo xalqlari tabiiy integratsiyalashgan mintaqa hisoblanadi. Chunki, geografik, etnik, diniy, xo'jalik, milliy mentalitet jihatdan olganda yuqoridagi tabiiylikning asosililigini ko'rsatadi. Faqat bu joyda siyosiy qarashlar, umummanfaatlar, boshqaruv, o'zaro ishonch kabi inson omili bilan bog'liq jihatlarga xalqlarning zimmasidagi tanlovga qoldirilgan. Aynan shu tanlovda mintaqa mamlakatlarining siyosiy yetakchilari muhim o'rin tutadi. Garchi xalqlar qardoshlik munosabatlarini har qanday darajada mustahkamlashga intilmasin, siyosiy idora va davlat institutlari bunga imkoniyat hamda sharoit yaratib bersagina to'laqonli amalga oshgan. Demak, mintaqa integratsiyasini ko'p hollarda faqatgina davlatlardagi hokimiyatlarning tanlovi hamda intiluvini bilangina to'la ro'yobga chiqishi mumkin bo'ladi.

Adabiyotlar sharhi. Markaziy Osiyo mintaqasining o'rganilishi fanlararo tadqiqot ob'ekti bo'lib, bu ijtimoiy – gumanitar fan vakillariga ham talluqlidir. Xususan, etnik, millatlararo totuvlik, ijtimoiy masalalar XX asrning 90 – yillaridan yangicha qarash hamda zamonaviy

usullarda tadqiq qilinmoqda. Ya'niki, tarixchilar masalaning mohiyatini o'tmish bilan bog'lagan holda davriy ketma – ketlikka rioya qilib arxiv hujjatlari, ozg'aki tarix, davriy matbuot, statistik ma'lumotlar, adabiyotlar hamda amaliy tadqiqotlar bilan bayon qilib beradi. Aynan ushbu maqolani tayyorlashda tarixchi olimlardan R.Murtazayeva, D.Babajanova, D.Inoyatova, A.Rasulov, X.Yunusova, K. Saipova, R.Nazarov, B.Xaynazarov, R.Xomitov va boshqalarning tadqiqotlarida ilgari surilgan ilmiy xulosalardan keng foydalanilgan.

Shuningdek, masalaga oid falsafa, psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslar davlat va jamiyatlardagi ijtimoiy holatni, insonlar tafakkuridagi o'zgarishlarni, qonunlarning ta'siri bilan bog'liq jihatlardan yondashada. Bunda o'zbekistonlik olimlardan Sh.Shermuhamedov, B.R.Karimov, Q.N.Nazarov, A.Achildiyev, Z.R.Qodirova, A.D.Sharipov, M.G'aniyeva, Sh.O.Madayeva, O.Musayev va boshqalarning ishlarida masalaning fan yo'nalishida, g'oyaviy, ijtimoiy, siyosiy, milliy o'zlikni anglash nuqtai nazardan bayon qilingan. Qozog'istonda esa N.V.Alekseyenko, M.G. Mendikulova va boshqalarning tadqiqot ishida millatlararo munosabatlar, etnik, demografik hamda diasporalar masalalar tadqiq qilingan. Qirg'izistonda A.K.Bektanova, Sh.Batyrboyeva, D.J. Baktukulov va boshqalarning tadqiqotlarida etnik, milliy, demografik, milliy o'zlikni anglash, milliy ozchilikka oid tadqiqotlar amalga oshirilgan. Tojikistonda B.G. Gafurov, Ye.V. Belov, Z.A. Dadaboyeva, R.Kasymova, A.X. Po'latov va boshqalar tojik xalqlarining tarixi, milliy masalalar, o'zlikni anglash, fuqarolararo munosabatlar va boshqa jihatlar o'rganilgan. Xususan, B.G. Gafurov tojiklar tarixi haqida ma'lumot berib, unda ayrim bahsli masalalar ham o'rta tashlangani bilan e'tiborni tortadi. Biroq etnik shakllanish masalalarga oid qarashlari muhimdir. Turkmanistonlik Sh.X.Kadyrov, A.Yagmurov, A.G.Babayeva, M.Berdiyev, an, Sh.X.Kadyrov Turkmanistondagi etnosiyosiy jarayonlarni tadqiq qilib, uning muhim jihatlarini ochib bergani.

Muhokama va natijalar. Bu bo'yicha yaqin va uzoq tarixda aniq misollar va yetarli dalillarni ko'rsatish mumkin. So'z mintaqa mamlakatlari haqida borar ekan, ular azaldan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va siyosiy jihatdan bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib kelgan. Uzoq asrlar davomida mintaq xalqlari dehqonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik an'alaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos madaniy-tsivilizatsion makonga asos solishgan.

Agar masalaning mohiyatini etnik tarkib bilan o'rganiladigan bo'lsa, quyidagilar namoyon bo'ladi. 1897 yil Turkistonda 5,3 million aholi bo'lib, etnik tarkib o'zbeklar 35,77 foiz, qozoqlar va qirg'izlar 44,36 foiz, tojiklar 6,73 foiz, turkmanlar 4,98 foiz, ruslar 3,75 foizni, qoraqalpoq 2,26 foizni, qolgan xalqlar 2,15 foizni tashkil etgan [1]. Biroq mintaqada 2000 yilda 55 milliondan ortiq aholi yashagan bo'lib, ulardan O'zbekistonda 24,6 million (mintaqa aholisining 45 foizini tashkil

[2]), Qozog'istonda 14,9 million, Tojikistonda 6,2 million, Turkmanistonda 5,0 million, Qirg'izistonda 4,9 million nafar aholi bo'lgan [3]. 2021 yilga kelib esa mintaqada 80 millionga yaqin aholining yashashi demografik holatdagi o'sishni ko'rsatadi.

Demak, mintaqadagi xalqlarning etnik tarkibi haqida so'z borganda, ko'pmillatlilikni qo'shni davlatlar hisobiga bo'lganini ham ko'rish mumkin. Xususan, 1997 yil Tojikistonning 24,4 foiz, Qirg'izistonning 13,8 foiz, Turkmanistonning 9 foiz, Qozog'istonning 2,5 foiz aholisi o'zbeklardan iborat bo'lgan.

Xususan, birgina 2003 yil 1 yanvar holatidagi ma'lumotiga ko'ra O'zbekistonda 1 million 237 ming tojik, 977 ming qozoq, 227 ming qirg'iz, 152 ming turkman yashagan. Shuningdek, o'zbeklar 1999 yil Qozog'istonda 370 ming, Qirg'izistonda 664 ming, Tojikistonda 936,7 ming nafar bo'lgan. 2000 yil Navoiy viloyati (24,2 foiz), Toshkentda (40,9 foiz), Toshkent shahri 44 foiz aholisi boshqa millat vakillaridan iborat bo'lgan [4]. Xususan, sotsiologik so'rov 2004 yil qardoshlik so'ralganda o'zbek respondentlarining 37,1 foizi, tojiklar 42,9 foiz qardoshlari borligini ma'lum qilgan.

Ma'lumki, 2000 yillarda o'zbeklar Tojikistonda 24,4 foiz, Qirg'izistonda 13,8 foiz, Turkmanistonda 9 foiz, Qozog'istonda 2,5 foizni tashkil etdi. Shunda O'zbekistondan tashqarida 6 million o'zbek qo'shni va xorijda yashaydi [5]. Ya'ni, o'zbeklar Qirg'izistonda 850 ming, Qozog'istonda 511 ming, Turkmanistonda 600 ming, Tojikiston 1 million bo'lgan. 2020 yil holatida esa o'zbeklar Qirg'izistonda 900 ming, Tojikistonda 900 ming, Qozog'istonda 550 ming, Turkmanistonda 500 ming nafarni tashkil etadi. 2025 yil 1 yanvar holatida Qozog'istonda 660,6 ming, Qirg'izistonda 999,3 ming, Tojikistonda 926,3 ming, Turkmanistonda 642,4 ming, O'zbekistonda 29,2 million o'zbek yashagan.

Markaziy Osiyoda 1991 yildan keyin mintaqa bo'ylab migratsiya jarayoni nisbatan faolashdi. Xususan, O'zbekistondagi qozoq va qisman qirg'izlarning o'zlarining tarixiy vataniga ko'chib ketishi kuzatildi. Bunga asosiy sabab rag'batlantirish, iqtisodiy va ijtimoiy, huquqiy masalalar bilan bog'liq ko'mak ko'rsatish tizimini shakllantirish hamda amalga oshirish bo'ldi. Natijada mamlakatdagi dastlabki bu millat vakillarining ko'chib ketishi qolgan qismiga ham psixologik ta'sir qilib, geyin bu yerda o'zlariga tegishli millat vakillarining kamayib borayotgani va ular ham ko'chib ketishi kerakligi aks holda ma'lum bir ijtimoiy, oilaviy, niqoh, qardoshlik, maishiy muammolarga duch kelishi mumkinligidan xavotirlana boshlash holati kuzatilgan. Bu ayniqsa 1998 yildan so'ng faol tarzda namoyon bo'lgan. Bunga sabab esa ularning tarixiy vatanlaridagi holat va millat vakillarining tanlovi bilan bog'liq edi.

O'zbekiston esa o'z vatndoshlarini mamlakatga ko'chirib keltirishdan ko'ra ular bilan savdo – iqtisodiy hamkorlik qilish va xalq diplomatiyasida samarali ishtirokini ta'minlashga alohida e'tibor qaratdi. Xususan, asosan Eron, Afg'oniston, Tojikiston kabi davlatlardagi ayrim o'zbeklarning O'zbekistonga ko'chib kelish masalasida amaliy yordam so'rab mamlakat hukumatiga ko'p bor murojaat qilgani borasida arxivda ma'lumotlar mavjud. Biroq bunday so'rovlar har doim ham ijobiy yechim qilinmaganini ko'rish mumkin. Masalan, 1996 yil 4 iyulda Eronning Gurgon viloyatida qishloqlarida yashovchi 100 nafar o'zbek O'zbekiston rahabriga maktub yo'llab O'zbekistonga chaqirib olishlarini so'ragan. Ular o'tgan asrning o'rtalarida avval Afg'oniston so'ng Eronga ko'chib o'tgan edi [6]. Biroq ularni ko'chirib keltirishda amaliy yordam emas aksincha o'zaro hamkorlik qilish tavsiya qilingan.

Shuningdek, 1996 yil 29 oktyabr kuni Krasnodor o'lkasida yashovchi turk mesxeti sobiq mamlakat fuqarosi S.Murodov O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga murojaat qilib 1989 yil O'zbekistondan Rossiyaga ko'chirilgan millatdoshlari va shaxsan o'zining hayoti og'ir ekanligidan shikoyat qilib O'zbekistonga qaytishga yordam so'ragan [7]. Ularga ham o'zaro bordi kelish tavsiya qilingan.

Demak, shu davrlarda mintaqa davlatlarining barchasi bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlasada vaqt o'tib turli sabablar bilan natijalar har xil ko'rinishga ega bo'ldi. Bu esa iqtisodiy, ijtimoiy, mehnat bozoriga ta'sir qilib o'z o'zidan mamlakatlardagi aholining etnik tarkibida o'zining aksini topib tashqi migratsiyaning faollashuviga olib keldi. Buning albatta, ko'plab jihatlari mavjud, lekin umumiy qilib aytganda bu jarayon O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikistonda faolroq kechgan. Aynan bu faollik 2000 yillardan keyin yaqqol ko'rinadi. Ungacha bo'lgan 1991-2000 yillarda asosan etnik ozchiliklarning ma'lum qismi barcha mintaqa davlatlardan o'zlarining vataniga yoki Rossiya, G'arb, AQSh, Isroil davlatlariga ko'chib ketish holati kuzatilgan.

Qirg'iziston Respublikasi 2000 yil ma'lumotiga ko'ra 3128,1 ming qirg'iz (86 foiz) Qirg'iziston respublikasida yashab qolgan qismi O'zbekiston, Xitoy, oz sonda Tojikiston va Qozog'istonda yashaydi. Ya'ni, qirzig'lar sobiq SSSR hamda Xitoyda 1989 yil jami 2672,1 nafar bo'lib, shundan, Qirg'izistonda 2230,0 ming, O'zbekistonda 174,9 ming, Tojikistonda 63,8 ming, Qozog'istonda 14,1 ming, Rossiyada 41,7 ming, boshqa sobiq ittifoq davlatida 4,1 ming, Xitoyda 143,5 mingni tashkil etgan bo'lib, mos davrida 1999-2000 yillarda jami 3624,8 ming, shundan Qirg'izistonda 3128,1 ming, O'zbekistonda 224,6 ming, Tojikistonda 65,5 ming, Qozog'istonda 10,9 ming, Rossiyada 31,8 ming boshqa sobiq ittifoq davlatida 2,9 ming, Xitoyda 161,0 mingtani tashkil etgan [8].

Yana shuni aytish mumkinki, 1989-1999 yillar oralig'ida Qirg'izistonda qirg'izlar, o'zbeklar, boshqa Markaziy Osiyo xalqlarining soni oshib borgan. Jumladan, 1989 yil o'zbeklar 550.096 nafar, qozoqlar 37.318 nafar, tojiklar 33.518 nafardan 1999 yilda o'zbeklar 664.950 nafar, qozoqlar 42.657 nafar, tojiklar 42.636 nafarga yetgan. Bu albatta birinchidan tabiiy o'sish, tug'ilish holati bilan, ikkinchidan kam miqdorda bo'lsada ko'chib kelishlar hisobiga bo'lgan. Shu joyda aytish mumkinki, 1999 yilda Qirg'izistonda umumiy aholisining 13,8 foizi o'zbeklar bo'lgan holda qozoqlar 0,9 foiz hamda tojiklar 0,9 foizni tashkil etgan.

2020 yil ma'lumotiga ko'ra qirg'izlarning 1,5 millioniga yaqini xorijda yashaydi. Ular asosan mintaqa davlatlarida O'zbekistonda 350 ming, Tojikistonda 80 ming, Qozog'istonda 40 ming yashaydi. 1991 – 2020 yillar oralig'ida 50 ming qirg'iz vataniga qaytib kelgani ularning 40 ming nafari fuqarolikni olgan [9].

2001 yil avgustda Qirg'iziston Respublikasi Prezidentining “Tarixiy vataniga qaytgan qirg'izlarni qo'llab – quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni qabul qilingan. 2007 yil noyabrda esa “Etnik qirg'izlarning o'z tarixiy vataniga qaytishi uchun davlat kafolatlari to'g'risida”gi qonun qabul qilingan. 2013 yil avgustda “Xorijdagi vatandoshlarni qo'llab – quvvatlash bo'yicha davlat siyosati asoslari to'g'risida”gi qonun qabul qilingan. Uni amalga oshirish uchun 2015 yildan Bosh vazir huzurida “Vatandoshlari” bilan aloqalar kengashi tashkil etilgan. Keyin 2018 yil bu organ mamlakat prezidenti huzuriga o'tkazilgan.

2016 yil sentyabrda Qirg'iziston hukumati 2013 yil qonuni asosida “2017-2022 yillarda Qirg'iziston Respublikasiga ko'chib kelgan etnik qirg'izlarga yordam ko'rsatish to'g'risida”gi davlat dasturini qabul qildi. Bunda ekspertlarning fikricha ma'lum uy-joy, moslashish, fuqarolikni olish va ijtimoiy yordam olish va boshqa masalalarda muammoli vaziyatlar ham bo'lgan. 2018 yil avgustda 2018-2020 yillarda vatandoshlarni davlat qo'llab – quvvatlashi bo'yicha hukumat dasturi qabul qilingan.

1999 yilga kelib Markaziy Osiyo xalqlarining Qirg'iziston yerlari bo'yicha joylashuvi kuyidagicha bo'lgan. Eng ko'pi o'zbeklar qismining mamlakatda yashashi foiz hisobda, ularning 55,0 foizi O'sh viloyatida, 31,9 foizi Jalolobod viloyatida, 8,3 foizi Botkent viloyatida qolgan qismlari yana 5 ta hududiy birlikda yashagan. Shuningdek, mamlakatdagi qozoqlarning 41,0 foizi Chuy viloyatida, 28,3 foizi Bishkekda, 16,4 foizi Issiqqo'lda qolgani yana 5 ta hududlarda yashagan. Tojiklarning 62,2 foizi Botkent viloyatida, 14,9 foizi O'sh viloyatida, 12,3 foizi Jalolobod viloyatida qolgani 5 ta hududda yashagan [10]. Ushbu mamlakatda turkmanlar eng kam milliy ozchilikni tashkil etadi.

1999 yil holatida Qirg'izistonda jami oilalarning 5 foizi etnik jihatdan aralash oila hisoblagan. Xususan, qirg'izlarning milliy ozchilik bilan oilalari umumiy sonida 29.173 ta bo'lib, qirg'iz-qozoq oilalar 10.589 ta (umumiy hisobning 36,6 foizini tashkil etgan) bo'lib, qirg'iz-o'zbek 10.339 ta (35,4 foizni) tashkil etib, qirg'iz-rus 4372 ta (15,0 foiz), qirg'iz-tojik 1086 ta (3,7 foizni) tashkil etib umumiy aralash oilalarning 4,8 foizini tashkil etgan. Shuningdek mamlakatda ruslarning aralash niqohlari 43.731 ta bo'lib, shundan rus-qirg'iz 4372 ta (10,0 foiz), rus-nemis 7131 (16,3 foiz), rus-o'zbek 2111 (4,8 foiz), rus-qozoq 752 ta (1,7 foiz), rus-tojik mavjud emasligini ko'rish mumkin. Shuningdek ruslar o'zaro nikohi mamlakatda 136.227 tani tashkil etadi. Mamlakatdagi o'zbeklarning aralash nikohida 21.783 ta oila bo'lib, unda o'zbek-qirg'iz 10339 ta (47,5 foiz), o'zbek-tojik 3366 ta (15,5 foiz), o'zbek-uyg'ur 4030 ta (18,5 foiz), o'zbek-rus 2111 ta (9,7 foiz)ni o'zbek-qozoq 447 ta (2,1 foizni)ni tashkil etadi [11]. Qirg'iziston Respublikasining Norin viloyati 56,2 foiz o'zbek, 38,1 qirg'iz, 13,2 tojikdir. O'sh hududida esa 46 foizi o'zbeklardan iborat bo'lgan.

Tojikiston Respublikasining 7 foizi qishloq xo'jaligida yaroqli aholi soni esa o'sib bormoqda. Bu vaqt o'tib ijtimoiy masalada muammolarga sabab bo'lish ehtimolini ko'rsatadi [12]. Tojikistonning sharqiy qismida tog'li Badahshon avtonom viloyati Jirg'atol tumanida qirg'izlar yashagan. Ular chorvachilik bilan kun kechiradi. Hamda Qirg'izistonning O'sh, Jalolobod, Botkent viloyatlari bilan aloqasi yaxshi hisoblanadi [13].

Ruslar Tojikistonda fuqarolar urushi arafasida 398 ming kishi bo'lib, umumiy aholining 7,9 foizini tashkil etardi. 2000 yilga kelib esa 68171 nafari qoldi [14]. Tojikistonda fuqarolar urushi milliy masalaga ham o'zining salbiy ta'sirini o'tkazgan, albatta. Shuningdek, O'zbekiston fuqarolarning Tojikistonda 39,7 foiz, Tojikiston fuqarolarining O'zbekistonda 78,3 foiz qarindoshlari borligi ma'lum qilgan.

Qozog'iston Respublikasi 2020 yil ma'lumotiga ko'ra qozoqlar 5,5 millionidan 7 millionigacha qismi xorija yashagan. Xususan, 1 millioni atrofidagi qismi Rossiyada, O'zbekistonda 1 millionga yaqin, Qirg'izistonda 36 ming va qolganlari dunyoning 40 taga yaqin davlatlarda yashagan.

1991 yil noyabrda Qozog'iston SSR Vazirlar Kengashi boshqa respublikalar va xorijdan qishloq joylarda ishlashni xoxlovchi qozoqlarni Qozog'iston SSRga ko'chirish tartibi va shartlari to'g'risida qaror qabul qilgan. 1992 yil "Immigratsiya" to'g'risida qanun hamda xorijdan ko'chib kelgan qozoqlarga ijtimoiy – iqtisodiy imtiyozlar berish to'g'risida qarori qabul qilingan [15]. Shuningdek, 1992 yil "Umumjahon qozoqlar assotsiatsiyasi"ning birinchi qurultoyi bo'lib o'tgan.

1996 yil 31 dekabrda esa “Qozoq diasporalarini qo‘llab-quvvatlash davlat dasturi to‘g‘risida” Prezident farmoni qabul qilingan. Bular etnik omilga ta'sir qilib borgan.

Qozog‘istonda 40 ming nafar tojik yashaydi. Asosan ular Turkiston, Olmata, Ostana hamda janubiy viloyatlarda yashaydi. Aynan shu yerda 3 ta tojik, 10 ta aralash tojik tili ham o‘tiladigan maktablar mavjuddir. Yakshanba maktablar ham faoliyat ko‘rsatadi. Qozog‘istonda “Somoniyen” nomli tojik madaniy-jamaot birlashmasi assotsiatsiyasi ham majud bo‘lib, u mamlakatdagi 8 ta milliy madaniy markazlarni birlashtirgan.

Xulosa. Mirkaziy Osiyo mintaqasining integratsiyasida etnik omil ijobiy ta'sir qilib, buning shakllanishi uzoq yillar bilan belgilanadi. Qo‘shnichilik, o‘zaro qarindoshchilik, nikoh munosabatlari o‘z-o‘zidan davlat siyosatlariga ta'sir qilib xalq diplomatiyasi asosida munosabatlarni mustahkamlash, ishonch hamkorlik qilish hamda hududlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yishga imkon bergan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ата-Мирзаев. О., Гентшке В., Муратазева Р.Х. Узбекистан многонациональный: историко – демографический аспект. – Т., Мед.лит-ра, 1998. -С.45
2. Ата-Мирзаев. О., Гентшке В., Муратазева Р.Х. Узбекистан многонациональный: историко – демографический аспект. – Т., Мед.лит-ра, 1998. - С.8.
3. Топилин А. Демографический потенциал стран Закавказья, Центральной Азии и общий рынок труда СНГ // Центральная Азия и Кавказ. Общественно – политический журнал. 2000, №3 (9). С. 178
4. Ачилдиев А.С. Миллий истиқлол ғояси – миллатлараро муносабатларни такомиллаштириш омили. ф.ф.д.дисс. - Т.: 2004. - С.109
5. Межнациональный толерантность в Узбекистане: теория, социология, практика. - Тошкент., 2004. - С.9.
6. ЎзР ПАА 975-фонд. 26-рўйхат. 128-иш. 24-варақ.
7. ЎзР ПАА 975-фонд. 26-рўйхат. 128-иш. 81-варақ.
8. Население Кыргызстана. Национальный статистический комитет Кыргызской Республики. // Демографические тенденции, формирование наций и межэтнические отношения в Кыргызстане. Ред. З.Кудабаев., М.Гийо., М.Денисенко. - Бишкек. 2002. - Б.117.
9. Международный опыт взаимодействия и поддержки диаспоральных сообществ. Нур-Султон, 2020. -С.111.

10. Население Кыргызстана. Национальный статистический комитет Кыргызской Республики. // Демографические тенденции, формирование наций и межэтнические отношения в Кыргызстане. Ред. З.Кудабаяев., М.Гийо., М.Денисенко. - Бишкек. 2002. - Б.134.
11. Қирғизистон Республикаси миллий статистика агентлиги маълумотлари билан шакллантирилди. - Б.138.
12. Поляков С.П Традиционализм в современном Среднеазиатском общества. М.: Научная книга. 2000. - С.82
13. Национальный состав население Республики Таджикистан по данным Всеобщей переписи населения 2000 года. Душанбе. Государственный комитет статистики республики Таджикистан. 2003 г. - С.4
14. Национальный состав население Республики Таджикистан по данным Всеобщей переписи населения 2000 года. Душанбе. Государственный комитет статистики республики Таджикистан. 2003 г. - С.4
15. Международный опыт взаимодействия и поддержки диаспоральных сообществ. Нур-Султон, 2020. - С.148